



Shahrizod Ibragimova Jamshid qizi

Buxoro xalqaro universiteti II bosqich magistranti e-mail: ibragimovash2000@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisdagi zamonaviy tilshunoslikda diskurs turlaridan hisoblangan media, gazeta va kino diskurslarining lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir diskurs turining kommunikativ vazifalari, til vositalari hamda ijtimoiy ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ushbu diskurslarning o'ziga xos jihatlari va ularning umumiy hamda farqli tomonlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: diskurs, media diskurs, gazeta diskursi, kino diskursi, kommunikatsiya, pragmatika, multimodallik.

Annotation: this thesis examines the main types of discourse in modern linguistics, namely media discourse, newspaper discourse, and film discourse. It provides a comparative analysis of their linguo-pragmatic features, communicative functions, language means, and mechanisms of social influence. The study highlights both the similarities and differences among these discourse types.

Key words: discourse, media discourse, newspaper discourse, film discourse, communication, pragmatics, multimodality.

Аннотация: В данной тезисе рассматриваются основные виды дискурса в современной лингвистике: медийный, газетный и кино-дискурс. Проводится сравнительный анализ их лингвопрагматических особенностей, коммуникативных функций и механизмов воздействия на общество. В результате выявляются сходства и различия между данными типами дискурса.

Ключевые слова: дискурс, медийный дискурс, газетный дискурс, кино-дискурс, коммуникация, прагматика, мультимодальность.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tahlili shunchalik keng qamrovli sohaga aylandiki, uni turlarga ajratmasdan o'rganish imkonsizdir. Diskursning turlanishi turlicha mezonlarga asoslanadi: muloqot ishtirokchilari, muloqot kanali, maqsadi va ijtimoiy konteksti. Mazkur bo'limda zamonaviy jamiyat kommunikatsiyasida yetakchi o'rin tutuvchi media, matbuot va kino diskurslarining lingvopragmatik jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Media diskurs: XXI asr axborot asri deb atalar ekan, tilshunoslikda media diskurs (mass media discourse) tushunchasi markaziy o'rinni egalladi. Media diskurs – bu ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali amalga oshiriladigan har qanday nutqiy faoliyat va matnlar yig'indisidir. Mashhur gollandiyalik tilshunos Teun van Deyk o'zining "News as discourse" ("Yangiliklar diskurs sifatida") monografiyasida media diskursni institutsional tabiatga ega bo'lgan, ommaviy auditoriyaga yo'naltirilgan hamda maxsus



texnologik kanallar orqali uzatiladigan kommunikativ jarayon sifatida tavsiflaydi¹³. Ushbu ta'rif media diskursning ijtimoiy-kommunikativ mohiyatini ochib berib, uni boshqa diskurs turlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilarni aniqlash imkonini beradi.

Media diskurs jamiyatda bir vaqtning o'zida bir necha kommunikativ vazifalarni bajaruvchi murakkab ijtimoiy-semiotik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Avvalo, uning information vazifasi voqelik haqidagi faktlar, hodisalar va jarayonlarni ommaviy auditoriyaga tezkor hamda tizimli shaklda yetkazishni ta'minlaydi. Biroq media matn faqat axborot uzatish bilangina cheklanmay, persuasive-baholovchi funksiya orqali muayyan talqin, qadriyat yoki munosabatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bunda tanlangan leksik birliklar, metaforalar, sarlavha konstruksiyalari hamda vizual tasvirlar auditoriya ongiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim holatlarda media diskurs ritual-memorial funksiyani amalga oshirib, muhim voqealar yoki yo'qotishlarni jamoaviy xotira doirasida qayta ifodalash orqali ijtimoiy birdamlik hissini mustahkamlaydi. Nihoyat, rekreativ-ko'ngilochar funksiya media iste'mol jarayonining emotsional jihatini ta'minlab, auditoriyaning dam olish, chalg'ish va estetik zavq olish ehtiyojlarini qondiradi. Demak, media diskurs funksional jihatdan ko'p qatlamli bo'lib, u axborot, ta'sir, madaniy uzatish va emotsional tajriba kabi jarayonlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi.

Ilmiy ommabop yo'nalishdagi media diskurs zamonaviy ommaviy kommunikatsiya tizimida murakkab ilmiy bilimlarni keng auditoriya uchun soddalashtirilgan, obrazli hamda narrativ shaklda taqdim etish orqali tavsiflanadi. Bunga kosmik tadqiqotlarga oid ommaviy axborot materiallarini misol keltirish mumkin. Xususan, NASA tomonidan James webb space telescope missiyasi haqida berilgan rasmiy axborotda teleskopning "koinotga ilgari hech qachon bo'lmagan darajada chuqur nazar tashlashi va katta portlashdan keyin shakllangan dastlabki gallaktikalarni ochib berishi" ("will look deeper into the universe than ever before, revealing the first galaxies") ta'kidlanadi¹⁴. Mazkur ifoda ilmiy jihatdan murakkab astrofizik jarayonlarni keng jamoatchilik uchun tushunarli semantik modelga aylantirib, faktga asoslangan ma'lumot bilan bir qatorda kognitiv qiziqish va emotsional tasavvur uyg'otuvchi diskursiv strategiyani yuzaga keltiradi. Shu sababli ushbu matn ilmiy bilimlarni ommaga yetkazish, ya'ni axborot berish va ta'sir ko'rsatishning integrativ birligi sifatida namoyon bo'ladigan media diskurs namunasi hisoblanadi.

Shunday qilib, internet muhitidagi interaktiv shakllar media diskursni bir tomonlama uzatishdan ikki tomonlama muloqotga aylantirib, auditoriyaning kommunikativ jarayondagi faolligini keskin oshiradi. Umuman olganda, media diskurs ko'pincha manipulative xususiyat bilan ham tavsiflanadi. Ya'ni u faqat axborot yetkazish bilangina cheklanmay, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, yo'naltirish, ayrim hollarda esa ongli ravishda ta'sir o'tkazish vazifasini ham bajaradi.

Gazeta diskursi: zamonaviy ommaviy axborot vositalari jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni nafaqat og'zaki, vizual xabar beradi, balki ularni muayyan ma'no va hissiy rang bilan talqin qilib matn shaklida ham ifodalaydi. Media diskurs tizimida gazeta diskursi eng qadimiy va barqaror shakllardan biri hisoblanadi. Garchi bugungi kunda elektron

¹³ Teun A. van Dijk. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – p. 3–14.

¹⁴ NASA Webb Telescope Team. Back to the Beginning: Probing the First Galaxies with Webb // NASA Science. – 19 January 2021.

OAV rivojlangan bo'lsa-da, gazeta diskursi o'zining tahliliylik, rasmiylik va "hujjatli" xarakteri bilan ajralib turadi. Gazeta diskursini tadqiq qilgan olimlar uning asosiy vazifasi sifatida "axborot va ta'sir o'tkazish birligi"ni ko'rsatadilar. Ya'ni, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, gazeta tili bir vaqtning o'zida ham xolis xabar berishi, ham o'quvchini ishontirishi kerak. Bu esa uni auditoriya uchun tushunarli tarzda strukturalash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalarni muntazam ravishda yoritish orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan gazeta diskursi voqelikni oddiy faktlar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy ongga ko'rsatadigan nutqiy shakl sifatida talqin qiladi.

Ingliz tilidagi gazeta diskursi, xususan, Buyuk Britaniya va AQSH ommaviy axborot vositalari tajribasida, odatda ikki asosiy yo'nalishga ajralib ko'riladi: sifatli matbuot va tabloid nashrlar. Sifatli pressa vakillari bo'lgan "The times" hamda "The Guardian" sahifalarida nutq uslubi yuqori darajada rasmiylik, murakkab sintaktik tuzilmalar hamda tahliliy yondashuvning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Aksincha, "The Sun" va "Daily mirror" kabi tabloid nashrlarda diskursning lingvistik xususiyatlari so'zlashuv uslubiga yaqinlashuvi, qisqa va dinamik gaplarning qo'llanishi, shuningdek, emotsional-ekspressiv birliklar hamda e'tiborni jalb etuvchi shov-shuvli sarlavhalarning keng ishlatilishi bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek gazeta diskursi esa mazkur keskin tipologik qarama-qarshilik bilan karakterlanmaydi. Milliy matbuot namunalari, jumladan, "Xalq so'zi" va "Hurriyat" nashrlarida, asosan, ma'rifiy-didaktik yo'nalishning ustuvorligi kuzatiladi. Bunday kommunikativ model doirasida jurnalist faqat axborot yetkazuvchi subyekt sifatida emas, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni targ'ib etuvchi hamda ma'naviy yo'naltiruvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Natijada gazeta matnlarida vatanparvarlik, fidoyilik, shukronalik singari hissiy-baholovchi semantic birliklarning faol qo'llanishi kuzatiladi va bu holat o'zbek gazeta diskursining aksiologik yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Kino diskursi: kino diskursi zamonaviy media makonida alohida semiotik tizim sifatida namoyon bo'lib, u verbal va noverbal ifoda vositalarining o'zaro uyg'unlashuvi orqali ma'no hosil qiladi. Mazkur diskurs doirasida nutqiy birliklar tasvir, musiqa, intonatsiya hamda harakat kabi ekstralingvistik komponentlar bilan birgalikda faoliyat yuritib, tomoshabinga ko'p qatlamli semantik va emotsional ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan kino kommunikatsiyasi nafaqat lingvistik hodisa, balki estetik hamda ijtimoiy muloqot shakli sifatida talqin qilinadi. Film matnida senariyga asoslangan dialog va monologlar verbal qatlamni tashkil etsa, vizual kompozitsiya (rang, yorug'lik, kamera rakursleri) hamda audio elementlar (musiqa, fon shovqinlari, ovoz ohangi) mazmunni chuqurlashtiruvchi asosiy semantik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Kino diskursi muammosi turli ilmiy maktablar doirasida o'rganilib, bu borada avvalo ingliz tilida faoliyat yuritgan tadqiqotchilar muhim nazariy asoslar yaratganlar. Jumladan, Christian Metz kino tilini mustaqil semiotik tizim sifatida talqin qilib, film mazmunining belgilar orqali shakllanish mexanizmlarini izohlab bergan. Christian Metzning asosiy g'oyalaridan biri shundaki, kino "til" deb to'liq nomlanmaydi, balki, "til tizimi" sifatida qaraladi – ya'ni u tilning o'zi emas, balki uni shakllantiruvchi belgilar va qoidalarning



tizimli yig'indisidir. Bu nazariya uning 1964-yilda chop etilgan "le cinema: langue or langage?" maqolasida shakllangan¹⁵.

Kino diskursining muhim xususiyati uning polikodli tabiatida ko'rinadi, ya'ni ma'no faqat so'z orqali emas, balki turli belgilar tiziming sintezi orqali shakllanadi. Natijada ayrim hollarda mimika, jest yoki montaj yechimlari verbal ifodadan ko'ra kuchliroq kommunikativ yukni o'z zimmasiga oladi. Bundan tashqari, kino madaniy stereotiplar va ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishda sezilarli ta'sir kuchiga ega bo'lib, turli jamiyatlarda yaxshilik-yomonlik, qahramonlik yoki axloqiy me'yorlar haqidagi qarashlarning ommalashuviga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, media, gazeta va kino diskurslari umumiy kommunikativ maydonga mansub bo'lsa-da, ularning funksional va semantik xususiyatlari farqlanadi. Media diskurs keng qamrovli va multimodal tizim bo'lsa, gazeta diskursi rasmiy-analitik xarakterga ega, kino diskursi esa badiiy-estetik va emotsional ta'sir bilan ajralib turadi. Ushbu diskurs turlarining qiyosiy o'rganilishi tilshunoslikda kommunikativ jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Teun A. van Dijk. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.
2. Teun A. van Dijk. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Michel Foucault. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 1972.
4. NASA Webb Telescope Team. Back to the Beginning: Probing the First Galaxies with Webb // NASA Science. – 19 January 2021.
5. Metz Ch. Film Language. – 1974.

¹⁵ Metz Ch. Film Language. – 1974.